

O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI
“TASVIRIY SAN’AT” FAKULTETI
“MAHOBATLI RANGTASVIR” KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

_____A.A.Yusupov

“_____” _____ 2018 yil

5150800 – “Rangtasvir (Mahobatli rangtasvir)” ta’lim yo‘nalishi kunduzgi bo‘lim

094-13-guruh talabasi

Halilov Qobilning

“Teatr” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Mahobatli
rangtasvir” kafedra professori

_____B. F. Jalolov

“Himoyaga ruxsat etilsin”

“Mahobatli rangtasvir”

kafedra mudiri

_____SH.R.Jumaniyazov

“_____” _____ 2018 yil

TOSHKENT – 2018

Mazkur Bitiruv malakaviy ishi “Mahobatli rangtasvir” kafedrasining 2018 yil _____ may oyidagi № _____ sonli va Tasviriy san’at fakulteti Kengashining _____ may oyidagi majlisda muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Taqrizchi: _____

Himoya 2018 yil _____ soat _____da o‘tkaziladi.

Manzil:Toshkent shahri Mirobod tumani Mironshoh 123 uy.

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. TEATR SAN'ATI HAQIDA	7
1.1. Teatr san'atining rivojlanish tarixi	7
1.2. Badiiy san'atda teatrning o'rni.....	14
II BOB. TEATR MAVZUSINING TANLANISHI.....	18
2.1. Kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyati.....	18
2.2. Asarning yaratilish tarixi va texnologiyasi	31
Xulosa	39
Glossariy.....	40
Foydalanilgan adabiyotlar.....	45
Illyustratsiyalar.....	46

KIRISH

Madaniyatimiz, tariximiz—bizning eng katta, ko'z qorachig'idek asraydigan boyligimiz. Ular hech qachon eskirmaydi, inqirozga yuz tutmaydi, yaroqsiz holga kelmaydi. Ular odamni, jamiyatni ma'nan yoshartirib turadigan bebaho ne'matlardir. Ana shu ne'matdan har bir kishini bahramand etish, biz qurayotgan jamiyatning asosiy maqsadidir¹.

I.A. Karimov.

Yurtimizda barcha sohalar qatori san'at va madaniyat sohasiga, jumladan tasviriy san'at va uning rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. San'at o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlar, urf –odat va an'analarimiz bilan tanishtirish, yoshlarimiz ongiga milliy g'urur va insonparvarlik g'oyalarini singdirish omillaridan biri sifatida qaratilmoqda. Ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni asrab avaylash va ularni rivojlantirish barobarida yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugun milliy san'atimiz umumjahon badiiy manzarasining ajralmas va o'ziga xos bo'gini sifatida gavdalandi. San'atning an'anaviy turlari (tomosha san'ati, musiqa, hunarmandchilik sohaları) bilan bir qatorda Sharq va G'arb madaniyatlari uyg'unlashuvini namoyon etuvchi san'at shakllari (rangtasvir, grafika, kino, televidenie) ham to'laqonli rivojlandi.

Bugungi kunda yangi ma'naviy-g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morchilik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida, musiqa va tomosha san'atlarida, badiiy va hujjatli kino hamda televidenie tizimida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.; 1992. 63 б.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda yangilanish g'oyalari munosabati bilan turli jabhalarda, turli rakurslarda yangi fikrlash nuqtai - nazari bilan keng ma'noda badiiy tajribani anglashning o'zaro aloqadorligiga qiziqish kuchaydi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi teatr san'atining go'zal lavhalarini, uning tarixini, qahramonlar obrazini tasviriy san'atga olib kirish va uning ahamiyatini ommaga namoyish etish borasida qilingan amaliy ishlardan biridir. Bitiruv malakaviy mavzusi etib Teatr mavzusi tanlandi. Ushbu mavzuda shu kungacha malakaviy bitiruv ishi yozilmaganligi va bu asarning mahobatli tasviri bo'yicha hech qanday ishga qo'l urilmagani uchun dolzarb deb hisoblandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ishning maqsadi etib teatr san'atining o'ziga xos jozibasi va holatlarini tasviriy san'at vositasida aks ettirish ya'ni, mahobatli rangtasvirda teatr mavzuni tasvirlashdan iborat. Yaratilayotgan mahobatli rangtasvir kompozitsiyasi mozaika ko'rinishida teatr binosida aks ettirish uchun ishlanayotganligini nazarda tutilib, tomoshabinlarga va teatrga tashrif buyuruvchilarga teatr va tasviriy san'atning go'zalligini namoyish etish va bu bilan kishilarning estetik dunyoqarashini yuksaltirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. "Teatr" deb nomlangan ushbu kompozitsiya teatr binosining foyesi uchun mo'ljallangan. Shu sababli ham bitiruv malakaviy ishida san'atning go'zallik olami ekanligini namoyon etish, teatr va tasviriy san'atning hamohangligiga urg'u berib, san'atning, xususan mahobatli rangtasvirning o'rnini ta'kidlab ko'rsatishni bosh vazifa qilib oldik.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Ob'ekt sifatida teatr mavzusining mahobatli rangtasvirdagi tasvirlanishi olindi. Teatr mavzusidagi ish orqali me'morchilikdagi mahobatli rangtasvir asarlarining insonlarni estetik qarashlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilindi. Ushbu ishni teatr binosining foyesida mozaikada ishlandigan devoriy suratning eskizi sifatida ochib berishga harakat qilindi.

Adabiyotlar sharxi. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yoritishda mavzuga oid bir qator adabiyotlardan foydalanildi. Jumladan birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1992-yilda Toshkent shahrida nashr etilgan

“O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”² 2011 yil Toshkent shahrida nashr etilgan “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch”³ asarlaridan, shuningdek, S.Tursunboyevning “Xorijiy teatr tarixi”⁴, “Teatr tarixi”⁵ “XX asr o‘zbek teatri”⁶ “Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi”⁷, “Kompozitsiya (Mahobatli rangtasvir)”⁸ kabi asarlaridan manbaa sifatida foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining strukturasi. Bitiruv malakaviy ishining strukturasi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, glossariy va illyustratsiyalardan iborat.

² Каримов.И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.; 1992. 63 б

³ Каримов.И.А. Юксак маънавият -енгилмас куч.-Т.:“Маънавият” 2008 й.32-б.

⁴ Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. T.: 2005 y. 196 b.

⁵ Tursunboyev S. Teatr tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.:O‘MHKTМ, “Bilim” -2005. 288 b.

⁶ Tursunboyev S. XX asr o‘zbek teatri. O‘quv qo‘llanma. T.: -2007. 269 b.

⁷ Xudayberganov R. A. Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. T.: “ANARPRINT”-2007.190b.

⁸ Xudayberganov R. A Kompozitsiya (Mahobatli rangtasvir) T.: “Fan va texnologiyalar”-2015. 127 b.

I BOB. TEATR SAN'ATI HAQIDA

1.1. Teatr san'atining rivojlanish tarixi

Mahobatli bezak san'ati asarlari tasviriy san'atning eng ommabop va xalqona turlaridan biridir. Sababi, bu turdagi haykal, bezak va rasmlar doimo odamlarning nazarida bo'ladi. Shu tufayli bunday asarlar katta tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Binobarin kishilik jamiyati san'atining bu turidan qadim zamonlardanoq keng foydalanilgan. Bashariyat tarixi, xususan, tasviriy va me'morchilik san'ati solnomasiga nazar tashlasak, mahobatli bezatuvchi san'atning yuksak pog'onalarga ko'tarilgan davrini ko'p uchratamiz.

Shuningdek, san'at turlari orasida kishilik jamiyati uchun teatr san'atining ham o'ni beqiyosdir. Teatr (yunoncha –“tomoshagoh”) cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ifoda etadigan tomosha orqali fikr beruvchi san'at janridir.

Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Uning o'ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr san'ati asosida og'zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi.

Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pyesadagi so'zlarini o'zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim o'rin tutadi. Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (ssenografiya)ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni va rejissura yechimidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi. Teatrda musiqaning ham o'ni katta, tomosha turi va janriga bog'liq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita bo'lsa, operetta, musiqali

dramada soʻz bilan barobar huquqga ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi⁹.

Teatr sanʼati uzoq tarixga ega boʻlib, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, toʻqnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrlarida ovchilik, mehnat va diniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhlariga sigʻinish bilan bogʻliq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Turonda miloddan avvalgi V asrdayoq teatr jamiyat hayotida muhim oʻrin tutgan. Hindistonda teatr sanskrit teatri, xalq teatri shakllarida hamda "Mahobhorat" va "Ramayana" dostonlari bilan bogʻliq holda rivojlangan; dramaturgiya va sahna sanʼati haqida "Natyashastra" nomli risola yaratilgan. Keyinroq teatr Yaqin Sharq va Rimga ham yoyildi. Ayniqsa, Rimda teatrning yangi shakl va turlari yaratildi. Gʻarbiy Yevropada teatr sanʼatining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar jonglyorlar ijodida, Rossiyada skomoroxlar faoliyatida yuzaga kelgan. Uygʻonish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional teatrning shakllanishiga zamin yaratdi. XVI asrdan opera, XVIII asr oʻrtalaridan balet, XIX asr oʻrtalaridan operetta mustaqil teatr turi sifatida rivojlana boshladi. Teatrning keyingi taraqqiyoti klassitsizmning keng yoyilishi bilan bogʻliq. XVIII da maʼrifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Asta sekin realistik tendensiya kuchaydi. Ayniqsa, K. Goltsoni, G. Lessing, P. Bomarshe, F. Shiller ijodida realizm yorqin namoyon boʻldi. XVIII asrning oxirlariga kelib, drama, melodrama, vodevillarda satirik yoʻnalishning yuzaga kelishi teatrda demokratik asosning kuchayishiga sabab boʻldi. Teatr gʻoyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi.

XIX asrning birinchi yarmida vujudga kelgan romantik yoʻnalish teatrda gumanistik ideallar va koʻp hollarda xayoliy orzularning yoritilishiga olib keldi. Dramada taqlidgoʻylikdan iborat klassitsizmga qarshi, oʻziga xos milliylik, xalqchilik, tarixiylik va ijtimoiy adolat uchun kurash ohanglari keng quloq yoydi.

⁹ Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. Oliy oʻquv yurtlari uchun qoʻllanma. T.: 2005 y. 196 b.

XIX asr oxirlaridan teatrni isloh qilishning yangi davri boshlandi. Teatr badiiy adabiyot (proza, poeziya), yangi drama (A. Chexov, G. Ibsen, B. Shou va boshqalar) bilan yaqinlashdi. XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida teatrd, aktyorlik san'atida yangi ta'lim uslubi Stanislavskiy sistemasini qo'llash boshlandi. XX asrning 20-yillarda V. Meyerxold, V. Tairov, V. Vaxtangovlarning rejissorlik faoliyati teatrning rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi. XX asrning o'rtalarida G'arb rejissurasi va sahna san'atiga B. Brextning ijodiy uslubi katta ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy teatr dunyo teatrining demokratik, xalqchil an'alarini muttasil o'zlashtirib borishi, sahnaviy talqinlarning rangbarangligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston hududida an'anaviy teatr juda qadimiy va boydir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayoni aks etgan taqdidiy raqslar, jangovar va xalq o'yinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar shaklda namoyon bo'lgan. Mil. av. VII —VI asrlardayoq Turonda zardushtiylik va uning mukaddas kitoblar to'plami — Avesto bilan bog'liq ikki toifa — kulgili va qayg'uli tomoshalari shakllangan. Yunon — Baqtriya podsholigi davrida Oyxonim, Niso, Shahri G'ulg'ulada maxsus teatrlar bo'lib, ularda Yevripidning "Alkesta", "Ippolit" kabi tragediyalari ko'rsatilgani ma'lum. Mililoddan avvvalgi birinchi asrdan milodiy IV asrgacha Kushon davlatida Budda dini bilan bog'liq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo'lgan. Ayritom ibodatxonasi peshtoqidagi cholg'uchi qizlarning tasvirlari ham shuni ko'rsatadi.

Asta sekin Turon teatr san'ati diniy marosimlar qobig'idan chiqib, dunyoviy mazmun kasb etadi — inson hayoti, ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashga e'tibor kuchayadi. VI—VII asrlar Turon mulkidan chiqqan cholg'uchilar, aktyor va raqqosalar Buyuk ipak yo'li orqali qo'shni yurtlarga ijodiy safar qiladilar. IX—XII asrlarda xalq bayramlari, marosimlari, urf odatlari va ular bilan bog'liq tomoshalar tiklanibgina qolmay, aholi orasida keng tarqaldi. Masxara va taqlid teatr rivojlandi. Amir Temur davlati davri (XIV— XVI asrlar)da teatr san'atida keskin yuksalish ro'y berdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixolarning

ma'lumotlaricha, bu davrda poytaxt — Samarqandda va boshqa nufuzli shaharlarda teatrlashgan tomoshalar uyushtirilgan. An'anaviy teatr va boshqa san'at tomoshalari, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek davrida (1394—1449) Movarounnahrda, Husayn Boyqaro davrida (1469— 1506) Xurosonda taraqqiy topdi. G'iyos masxara, Xoja Dexdor, Abdulla Devona, Abdulvose' Munshi, Sayd Badr kabi teatr san'atining atoqli namoyandalari faoliyat ko'rsatgan. An'anaviy teatrning kulgili turlari (masxara, taqlid, zarofat), qo'g'irchoq o'yin (chodir jamol, chodir xayol, fonus xayol) badiiy tomosha tizimi sifatida tashkil topdi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida teatrning asosiy turlari shaklanib, repertuar va ijro uslubida o'ziga xos xususiyatlar rivojlandi. Shaharlarda ijrochi san'atkorlarning kasabai sozanda (mextarlik) degan uyushmalarining faoliyati kuchaydi. Xorazmda "Xatarli o'yin", "To'kma" tomoshalari keng yoyildi. Farg'ona vodiysi va Toshkentda qiziqchilik va askiya taraqqiy etdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qonda Zokir Eshon boshliq 30 ga yaqin qiziqchilar to'dasi, Buxoroda Tula masxara boshliq 20 ga yaqin masxarabozlar to'dasi shuxrat qozondi.

Keyinchalik o'zbek madaniyatining ilg'or namoyandalari (Furqat, Behbudiy, Avloniy va boshqalar) rus, tatar va ozarbayjon teatr truppalari tomoshalariga qiziqish bilan qarab, mahalliy ziyolilarni ulardan o'rganishga chaqirdilar. Shu tarzda yangi milliy teatr yaratish harakati yuzaga keldi. 1914 yilda Samarqand (15-yanvar) va Toshkent (27-fevral) da "Padarkush" dramasini sahnalashtirish bilan yangi o'zbek teatri o'z faoliyatini boshlaydi. Ayniqsa, A. Avloniy rahbarligida "Turon" teatrining 1915 yilda O'zbekiston shaharlariga kilgan ijodiy safarining ahamiyati katta bo'ldi. 1916 yilda Hamza Qo'qonda teatr tuzdi. Birin ketin Andijon (1919), Xiva (1922), Buxoro (1922) da teatrlar tashkil qilindi. 1918 yildan Mannon Uyg'ur "Turon" teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)ga rahbarlik qilib, uning professional teatrga aylanishida, repertuarini tuzish, ijro uslubini yaratishda muhim rol o'ynadi. Teatrning birinchi bo'g'in aktyor va rejissorlari 1924—27 yillar Moskvada O'zbek Maorif uyi qoshida ochilgan drammma studiyada tahsil olishgan. 20-yillar so'ngida Rus yosh tomoshabinlar Teatri (1928), O'zbek yosh tomoshabinlar Teatri (1929) tashkil topdi. Keyinroq

Namangan (1931), Qashqadaryo (1932), Surxondaryo (1935) viloyati teatrlari, o'nlab tuman va shahar teatrlari yuzaga keldi. Toshkent va Samarqandda Davlat rus drama teatri (1934, 1938). Respublika qo'g'irchoq teatri (1939). Navoiy nomidagi davlat opera va balet teatri (1939) o'z faoliyatini boshladi, shu yili Davlat komediya teatri tashkil bo'ldi va u bir yil o'tib Muqimiy nomidagi Respublika musiqali drama va komediya teatriga aylantiriddi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov sh.laridan ko'chib kelgan teatrlar mamlakatimiz shaharlarida o'z faoliyatini olib bordi. 50—60-yillarda Hamza nomidagi akademik drama teatri va boshqa teatlarda turli mavzu, sarmazmun, ijtimoiypsixologik, maishiy va falsafiy, rangbarang uslubda spektakllar sahnalashtirildi. 1968 yilda "Yosh gvardiya" teatri (hozirgi Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat drama teatri) tashkil qilindi.

70-80-yillar teatlarda ziddiyatli davr bo'ldi; bir tomondan, milliy an'analarga e'tibor kuchaygan bo'lsa, ikkinchidan, dabdababozlik, hayotni xaspo'shlab ko'rsatish avj oldi. 1976 yilda "Ilhom" teatr studiyasi ish boshladi. 1986 yilda Respublika Satira teatri tashkil topdi. 80-yillarning ikkinchi yarmida hayotni haqqoniy aks ettirish, janrlar rang-barangligi, tomoshaviylikka intilish mayllari yuzaga kelib, asta-sekin kuchayib bordi. Bu davrda Abror Hidoyatov nomidagi teatr yetakchi o'ringa chiqib oldi.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingach, o'zbek teatri hayotida ham yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli milliy merosga tayanib ijod qilish, milliy qadriyatlar, an'analarni tiklashga intilish jiddiy tus oldi. Bu davrda o'zbek teatrida quyidagi ilg'or tendensiyalar, ijodiy izlanishlar ko'zga tashlanadi: birinchidan, teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog'i oshdi. Buyuk ajdodlarimiz — allomalar, shoirlar, davlat arboblari, lashkarboshilarning hayoti va taraqqiyot uchun kurashini yorituvchi o'nlab sahna asarlari yaratildi. Sahnalarda sho'rolar davrida hatto tilga olish man etilgan Bahouddin Naqshband, Hakim at-Termiziy, Imom al-Buxoriy kabi allomalar, "Avesto" kitobi asosida Zardushtiy hayotini yorituvchi sag'na asarlari vujudga kelib, davrimiz tomoshabinlari ma'naviyatini boyitdi, tarixiy, diniy e'tiqodga nisbatan qarashlarni o'zgartirdi. Ayniqsa, Amir

Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma'naviy va madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Ikkinchidan, zamonaviy o'zbek teatrida tasavvuf bilan bog'liq "Muhabbat sultoni", "Mashrab" (Milliy teatr), "Xitoy malikasining siri" (Rus teatri), "Umar Xayyom", "Ato etilgan muhabbat tariqati" (O'zbekiston yoshlar teatri), "Na falakman, na farishta" (Muqimiy teatri), "Shayh san'on", "Raqsu samo'" ("Eski masjid" teatr studiyasi) kabi spektakllar teatrlarimizning eng murakkab mavzularga dadil qo'l urayotganlari, yangi manbalarni ochayotganlaridan dalolatdir. Shu yo'nalishda Alisher Navoiy asarlarini teatr sahnasida yangicha talqin etish boshlandi. Uchinchidan, jahon va milliy mumtoz dramaturgiya namunalarini zamonaviy talqin va vositalarda sahnalashtirish boshlandi. Navoiy, Shekspir, Molyer, Ayniy, Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, G'afur G'ulom asarlarining sahnaviy talqinlari shundan guvohlik beradi. To'rtinchidan, teatrlarda ilgari qoloqlik belgisi sifatida qarab kelingan etnografiya va folklor manbalari vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy yo'nalish sifatida ko'zga yaqqol tashlanib, sahna san'atining milliy o'ziga xosligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. "Alpomish" qahramonlik dostoni asosida poytaxt va viloyat teatrlari sahnalarida yaratilgan 10 ga yaqin spektakllar ham bu yo'nalishning istiqbolidan nishonadir. Beshinchidan, dramaturgiya va teatrdagi zamonaviy mavzularda asarlar yaratilib, sahnalashtirish yildan yilga sezilarli tuy olib bormoqda. Zamonaviy mavzular ko'proq melodrama, komediya, tragikomediya janrlari doirasida ishlanmoqda. Ayniqsa, maishiy axloqiy komediyalar teatrlar repertuaridan keng o'rin egalladi.

Mustaqillik yillarida Farg'ona, Xiva, Qarshi, Namangan, Termiz shaharlarida qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi. Abbas Bakirov nomidagi jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Andijon bolalar va yoshlar teatri ga aylantirildi (1990).

O'zbekistonda o'tkazilgan "Sharq va G'arb" teatr san'ati festivali, "Xumo" xalqaro yoshlar teatrlari festivali, "Navro'z", "Andijon bahori" respublika teatr festivallari, Germaniyaning "Ander Rur" teatri bilan "Muloqot" teatri studiyasi hamkorligida tuzilgan "Ipak yo'li — teatr sayohati" loyihasi asosida

o'tkazilayotgan ikki tomonlama anjumanlar, qo'g'irchoq teatrlari festivallari teatr san'atining yangi ijtimoiy sharoitda rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. O'zbek teatri jamoalari dunyodagi bir qator mamlakatlarda ijodiy safarda bo'lib, o'zbek teatr san'ati yutuqlarini namoyish etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 26 martda e'lon qilingan "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining shu asosda qabul qilgan "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori teatr san'ati strategiyasini belgilab berdi. Shu asosda "O'zbekteatr" ijodiyishlab chiqarish birlashmasi, uning qoshida "Atrmadad" jamg'armasi, Teatr ijodkorlari uyushmasi tuzildi. "Teatr" jurnali nashr etila boshladi. Muntazam ravishda turli seminar va festivallar o'tkazilmoqda. Davlatlararo shartnomalarga muvofiq xorijiy mamlakatlardagi ijodiy tashkilotlar, xalqaro birlashmalar bilan aloqalar o'rnatilmoqda Amerikalik rejissor Devid Kaplan, britaniyalik Maykl Berkut va boshqa o'zbek teatrida, B. Yo'ldoshev Fransiyada, N. Abdurahmonov Isroilda, M. Yusupov AQShda asarlar sahnalashtirdilar. Hamza teatriga eski bino o'rniga zamonaviy muhtasham bino qurib berildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 21 sentyabrda e'lon qilingan maxsus farmoni bilan ushbu teatrga "Milliy teatr" maqomi berildi.

O'zbekiston Respublikasida davlat tasarrufidagi 37 ta teatr va teatr studiyalar, o'nlab nodavlat va xususiy teatrlar faoliyat ko'rsatadi.

Teatrlar kishilik jamiyatining asosiy madaiyat va tarbiya maskanlaridan biri sanaladi va uning jahon madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va hissasi beqiyosdir.

1.2. Badiiy san'atda teatrning o'rnini

San'at – estetik tadqiqot obyekti umumiy nomi, mushtarak tushuncha, Xususiy tushuncha sifatida u voqelikni go'zallik va ulug'vorlikka qadriyatlar va aksilqadriyatlar orqali muayyan xil, tur hamda janrlar doirasida in'ikos ettiradigan badiiy ijod mahsulini anglatadi. Shu bois san'atni xil, tur va janrlarga bo'lib, estetik o'rganish odat tusiga kirgan. Biroq ana shu “bo'lib o'rganish” ya'ni tasniflashtirish , turkumlashtirish bir qarashda osondek ko'rinsada, aslida estetikadagi murakkab va chalkashliklarga to'la muammo sanaladi. Bu borada o'nlab nuqtai nazarlar bor. Sababi san'at turlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir va ularni alohida tasavvur qilish mumkin emas.

Insoniyat ma'naviy hayotida teatr san'ati juda qadimdan o'z o'rnini yo'qotmay keladi. Bundan bir necha ming yillar avval qadimgi Hindiston, qadimgi Xitoy va qadimgi Yunonistonda dastlab teatr bir kishilik sahnadan iborat bo'lgan, keyinchalik ikki kishilik sahnadan, undan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Ya'ni spektakl jamoaviy ijod mahsul-rejissor, dramaturg, aktyor, va rassomning ijodiy izlanishlari natijasi o'laroq yuzaga keladi.

Teatr deganda, avvalambor san'atning kattakon bir turini tushunamiz. Shu bilan birga teatr- bu tomosha- spektaklning o'zi; tomosha ko'rsatiladigan joy, spektakl qo'yiladigan bino hamdir. Hech bir san'at teatr o'rnini bosa olmaydi. Chunki, teatrda tomoshabin bir to'p iste'dodli kishilar bilan birvarakayiga jonli muloqotda bo'ladi. Sahna asarining ta'sir juda kuchli. Buning sababi esa esa teatr san'ati hayotni , voqea-hodisalarni va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni drammatik xatti-harakatlarda, aktyorlar ijrosi orqali aks ettiradi. Bunda yozuvchi tomonidan yozilgan pyesa yoki librettoga tayaniladi. Pyesani rejissyor sahnalashtiradi; rollarni aktyorlarga taqsimlab beradi, ular bilan mashqlar o'tkazadi, rassom, libos tikuvchi, nur sozlovchi, musiqa tanlovchi (yoki kompozitor) va boshqalar bilan ish olib boradi. Pirovardida ko'pchilik bo'lib tayyorlanadigan sahna asari tomoshabinga ko'rsatiladi. Aktyorlar sahnada yuz berayotgan voqealarga berilib, har xil fe'l-atvorli kishilarning qiyofalarini gavdalantiradilar, tomoshabinlarni sezib tursalar

ham, sezmaslikka olib o‘ynaydilar. Sahnada hayot, voqelik birmuncha bo‘rttirib aks ettiriladi.

Teatr san’atining turlari ko‘p. Bular – drama teatri, opera, balet, musiqali drama, musiqali komediya, operetta, yosh tomoshabinlar teatri, qo‘g‘irchoq teatri, radio teatr, televizion teatr, estrada teatri, maydon teatridir. Teatr asarlarining janrlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Asosiylari: drama, tragediya, komediya. Ammo teatr yo‘nalishi, turiga bog‘liq holda ular ko‘payib ketadi. Chunonchi, fars, buffonada, tragikomediya, xronika, myuzikl, tarixiy drama, ertak-pyesa, folklor-etnografik tomosha, sahnaviy hazil kabi janrlar bor.

Teatr juda qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Ibtidoiy jamiyatdagi mehnat va dunyoqarashlar bilan bog‘liq marosimlar va o‘yinlardayoq teatrning boshqa bir qiyofani gavdalandirish, taqlid qilish, niqob, «ezgu» va «yovuz» kuchlarning o‘zaro tortishuvini ko‘rsatish, dialog kabi unsurlari paydo bo‘lib, mukammallashib borgan. Teatrning sof tomosha shaklida ko‘rinishi dastlab qadimgi Sharqda yuz bergan. Hindiston, O‘rta Osiyo, Xitoy, Indoneziya, Yaponiya, Koreya, Birma, Vyetnamda teatr tomoshalarining xilma-xil shakllari yaratilgan. Teatr ahamiyatga molik tushuncha sifatida miloddan avvalgi V-asrda Yunonistonda paydo bo‘lgan. Yunon teatri davlat tomonidan uyushtiriladigan bayramlarda ko‘rsatilgan.

Shundan boshlab teatr san’ati juda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Dramaturgiya, aktyor ijrochiligi rivojlanib borgan. Rejissyorlik paydo bo‘lgan. Usti ochiq maydon teatrlari o‘rnini usti yopiq teatr binolari egallagan. Sahnaning ko‘rinishi, texnikasi o‘zgarib borgan. Ijrochilik, sahnalashtirish uslublari yangilanib turgan.

O‘zbek teatri ham uzoq tarixga ega bo‘lib, uning dastlabki ko‘rinishlari ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda ajdodlarimiz zardushtiylik (otashparastlik) bilan bog‘liq holda o‘ziga xos teatr yaratganlar. Miloddan avvalgi V asrda Oyxonim, Shahri G‘ul‘ula, Nusay shaharlarida yunon shaklidagi maxsus teatr binolari qurilgan va ularda qadimgi yunon dramaturgi Yevripid tragediyalari o‘ynalgan. Kushon davlatida Budda dini bilan bog‘liq bo‘lgan turli teatrlashgan tomoshalar rasm

bo'lgan. Mahalliy teatr, ayniqsa, V-VII asrlarda yaxshi rivojlangan. Yurtimizdan chiqqan cholg'uchilar, o'yinchilar, raqqosalar, xonandalar Buyuk Ipak yo'li orqali qo'shni yurtlarga safar qiladilar. Xitoy yilnomalarining ko'rsatishicha, san'atkorlarimiz shahanshoh saroyida mustahkam o'rnatilgan.

Teatr san'ati, bir muncha boshqa shakllarda bo'lsa-da, musulmonlik davrida ham yashab kelgan. Xususan, IX-XII hamda XIV-XIX asrlarda Movarounnahr, Xorazm va Farg'ona o'lkalarida san'at, shu jumladan teatr san'ati o'ziga xos shakllarda taraqqiy etdi. Qissaxonlar, voizlar, maddohlarning ma'rakalari, masxara, taqlidchi, zariflarning chiqishlari aholi madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Amir Temur, Temuriylar davrida tomosha san'atlari, har xil bayramlar keng rasm bo'lgan. Teatrning uch turi yaxshi shakllangan: hikoya teatri (qissaxonlik, voizlik, maddohlik); kulgu teatri (masxara, taqlid, zarofat); qo'g'irchoq teatri (chodir jamol, chodir xayol, fonus xayol). Samarqand, Shahrisabz va Hirotida o'tkazilgan bayramlarda qadimiy niqoblar bilan o'ynaladigan tomoshalar ham tiklangan. XVI asrdan Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga kelgach, tomosha san'atida ham o'zgarishlar yuz berdi. Bir-biridan farq qiluvchi Buxoro masxarabozligi, Xorazm masxarabozligi, Farg'ona qiziqchiligi maydonga keldi. Fanda bular an'anaviy o'zbek teatri, deb nom olgan. An'anaviy teatrning shakllari, namunalari butun XX asr davomida yashab, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Shu kunlarda ham o'z uyushmalariga ega bo'lgan yohud yakka holda ijod qiluvchi bir qator iste'dodli qiziqchilar bo'lib, ular ma'lum darajada qadimgi teatr an'alarini davom ettirib kelmoqdalar.

XX asr boshidan jadidlar yangi o'zbek teatrini yaratish harakatiga tushdilar. Natijada 1914-yilda Samarqand va Toshkentda Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» nomli dramasini sahnalashtirish bilan ish boshlagan yangi teatrlar maydonga keldi. Hamza nomi berilgan hozirgi O'zbek davlat akademik teatri «Turon» teatri negizida maydonga kelgan. Keyinroq O'zbek musiqali teatri (1929), Navoiy nomidagi O'zbek davlat katta akademik opera va balet teatri (1939), Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama va komediya teatri (1939), 20–

30-yillarda viloyat teatrlari, Qo‘qon va Kattaqo‘rg‘on shahar teatrlari tashkil topdi. Toshkentda Abdulla Qahhor nomida satira teatri bor. Qisqasi, hozir (1998) jonajon mamlakatimizda 36 ta teatr, teatr studiyasi, 40 dan ziyod xalq teatri ishlab turibdi. Davlat teatrlarida to‘rt mingdan ortiq malakali san‘atkorlar ishlaydi. Bolalar xizmat qiluvchi maxsus teatrlar ham bor. Agar siz sevimli qahramonlaringizni ko‘rishni, ular bilan birga har xil ajoyibotlarni boshdan kechirishni istasangiz, Toshkentda 1928 – 29 yillarda tashkil topgan, hamon ishlab kelayotgan, ikki til (rus va o‘zbek)da ijod qilayotgan Yosh tomoshabinlar teatrlariga boring. Hozir Abror Hidoyatov nomi bilan yuritiluvchi Toshkent drama teatri (1976-yilda tashkil topgan) o‘spirinlar va yoshlarga xizmat qiladi. Adijonda esa Abbos Bakirov nomidagi viloyat yoshlar va bolalar teatri ishlab turibdi. Toshkent Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatri (1939), Andijon, Buxoro, Samarqand, Xiva, Farg‘ona, Namangan, Qarshi shaharlarida ham qo‘g‘irchoq teatrlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

San‘at turlari orasida teatr san‘ati va tasviriylar san‘at o‘zining uzoq o‘tmishi va kuchli psixologik xususiyatlari, o‘zining jozibasi va xalqchilligi bilan boshqa san‘at turlaridan ajralib turadi va bugungi kunda ularning uzviy taraqqiyoti davri bosqichi davom etmoqda.

II BOB. TEATR MAVZUSINING TANLANISHI

2.1. Kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyati

Teatr san'ati qanchalik boy va nafis sana't turlaridan hisoblansa, tasviriy san'at ham go'zallik va nofosat bobida undan also ortda qolmaydi. Mahobatli rangtasvir san'ati san'at turlari orasida eng qadimiylaridan biri hisoblanadi.

Jahon mahobatli devor rangtasvirining ilk namunalari qadimiy qoyatosh suratlari yodgorliklari bo'lib, ular so'nggi paleolit davridan boshlab tog' yonbag'rlari, qadimiy g'or va ungurlarga insoniyatning ilk ajdodlari tomonidan chizila boshlangan. Ispaniyadagi Altamira, Fransiyaning Lasko, Shvetsiyaning Tanum, Ozarbayjonning Qobustan manzilgohlaridan topib o'rganilgan, syujetlarida mahobatli qilib tasvirlangan bizon, tur, ot kabi turli yovvoyi hayvonlar va ov manzaralari tasvirlangan turli g'or suratlari va qoyatosh petrogliflari buning yorqin misoli bo'la oladi.

O'zbekiston hududidagi mahobatli devoriy rangtasvirining ilk tarixi, xususan qadimgi loy yoki sopoldagi idish parchalari hamda qoyatosh, g'or devorlaridagi primitiv suratlardan, mezolit davridagi ajoyib yodgorlik – Zaratsoy suratlardan boshlanadi, deb hisoblash mumkin. Qoyatosh suratlari dastlabki maskanlar- g'or va boshpanalar devoriy suratkashligining kelib chiqishida asosiy manba rolini bajargan.

Eng qadimgi devoriy rangtasvir asarlari g'orlar va qoyalar devorlarining ohaktoshli sirtida bevosita xech qanday tayyorgarliksiz to'g'ridan - to'g'ri amalga oshirilgan. Ularning devorlarida rangtasvir eng oddiy bo'yovchi moddalar yordamida bajarilgan. Qo'llanilgan ashyolarning mutlaqo oddiyligiga va uning texnikasining murakkabligiga qaramasdan mazkur qadimiy g'orli va qoyatosh suratlarning ko'plari nihoyatda yaxshi holatda ko'p ming yilliklar moboynida saqlanib qolgan.

Geografik o'rni, ajoyib tabiati sababli qadimgi ovchi, termachi va chorvadorlar uchun eng qulay joylardan biri bo'lgan Toshkent vohasida ham ko'plab qadimiy qoyatosh rasmlari yodgorliklari topilgan. Bugungi kunda ularning

umumiy soni 10000 nusxadan ortiqdir.¹⁰ Bu ajoyib qadimgi san'at asarlari juda jonli va harakatchan holda, bir necha uslubda aks ettirilgan. Ular qadim zamonlardan to keyingi davrlargacha urib cho'kichlangan. Toshkent vohasidagi ba'zi bir qoyatosh rasmlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular Markaziy Osiyodagi shu xildagi yodgorliklar orasida alohida o'rin tutadi. Vohadan qandaydir xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir necha qoyatosh rasmlar markazlari topilgan va o'rganilgan. Ana shunday qoyatosh rasmlari yodgorliklari qatoriga Xo'jakent, Qoraqiyasoy, Boshqizilsoy, Chotqol, Parakadasoy, Oxangaron va boshqalarni kiritish mumkin.

Xo'jakent qoyatosh rasmlari yodgorligi Toshkent shahridan 70 km. shimoli-sharqda, Chotqol tog'larining g'arbiy yonbag'rida va Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Bu erdagi rasmlar balandligi 12,5 metr, uzunligi 18 metr bo'lgan, tik ohaktoshli qoyaga urib cho'kichlangan. Rasmlar asosan qoyaning pastki, ya'ni odam bo'yi balandligidagi qismida joylashgan. Xo'jakent qoyatoshlarida 90dan ortiq alohida va kompozitsion holdagi har xil rasmlar birligi aniqlangan. Qoya sirtiga asosan tog' echkilari, arxarlar, kiyiklar, otlar, itlar, buqa va tushunarsiz rasmlar chizilgan. Bulardan tashqari Xo'jakent qoyalarida odamlarning rasmlarini ham uchratish mumkin. Rasmlar soya, kontur va oddiy chiziqli uslublarda aks ettirilgan. Ularning deyarli hammasi bir xil urilish texnikasida ishlangan. Xo'jakent rasmlari turli mavzularga bag'ishlangan bo'lib, qadimgi odamlarning turmushi va diniy tushunchalarini qamrab olgan. Bu rasmlar qadimgi ajdodlarimizning nafis san'ati namunalari bo'lib, tasviriy san'atning ajralmas qismi hisoblanadi.

Jahonning mahobatli devoriy rangtasvirning qadimgi namunalari sifatida shuningdek Misr, Krit - Miken, Qadimgi Rimning Pompey va Gerkulanum shaharlari, qadimgi antik davr Gresiyasi, qadimgi Rus mahobatli rangtasvir texnologiyasini misol qilib ko'rsatish mumkin.

¹⁰ Султонова Д.Н. Ўзбекистон меъморчилигида тасвирий ва бадий воситаларни уйғунлаштириш. “Санъат” нашриёти, Тошкент-2010

O'tmishning jonli guvohlaridan biri bo'lgan Afrosiyobda va boshqa joylardagi qazilmalarda topilgan devoriy suratlar kimning e'tiborini tortmayapti, hayratga solmayapti, faxrlantirmayapti. Boy tarixni qayta tilga kiritayotgan arxeologlar bunday mo'jizalarni ko'plab kashf etmoqdalar, halqning moddiy madaniy yodgorliklarini tiklamoqdalar. Sohibi qilqalamlar o'tmishda kishi ko'rganida taxsin o'qiydigan devoriy rasmlarni, bezaklarni ko'plab ishlaganlar va ishlab kelmoqdalar.

O'rta Osiyo devoriy rangtasviri quruq tagqatlamli (grunt) ohakli devor yuzasida (al-sekko) moviy yoki qirmizi singari yaxlit zaminda chizish usuliga asoslangan.¹¹ Ilk o'rta asrlarda devoriy rangtasvir me'moriy shakllar (eshik, gumbaz, shift, devor, ustun), haykaltaroshlik, amaliy san'at (o'ymakorlik, naqshbandlik, badiiy tekstil) bilan birgalikda to'rt badiiy vosita sintezini qo'llash vositasida keng qo'llanilgan.

O'rta Osiyo devoriy rangtasviri XI-XIII asrlarda ham qisman qo'llanilganligi aniqlandi. Uning asosiy qayta tiklanishi Amir Temur va temuriylar davri saroylari me'morchiligi va o'sha davr kitob miniatyurachiligi bilan bog'liq. Uning o'rnini IX-XIX asrlarda asosan naqsh san'ati egallagan bo'lsada, miniatyura va pannoli tasvir an'analari saqlanib qoldi.

Uzoq yillar, asrlar davomida mahobatli devoriy suratlar ishlash texnikasi rivojlanib keldi va unda turli uslublar-turlar shakllandi.

Rangtasvir kompozitsiyalarining rospis, sgraffito, mozaika, vitraj kabi turlarining har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib, ular joylashish o'rnini, material, faktura, plastik jihatdan turli ko'rinishlarga ega. Masalan, rospis ishlash mumkin bo'lgan joyga sgraffito yoki mozaikani ishlash har doim ham mumkin bo'lavermaydi.

¹¹ Ўзбекистон санъати. А.Ҳақимов. Шарқ, Т- 2001. – 240 б.

Sgraffitto texnikasida asosan bino eksteryeriga ishlanadi hamda uni ko‘pincha uzun devorlarga ishlash maqsadga muvofiq. Rospis va mozaika o‘z mohiyatiga ko‘ra kichik yoki kattaroq devorlarga, bino interer va ekstereriga birday ishlanishi mumkin. Vitraj faqat deraza, eshikli joylarda ishlanadi. Lekin har qanday kompozitsiya turini ishlashda me‘moriy bino hajmiy-fazoviy ko‘rinishi, konstruksiyasi, materiallari fakturasi, umumiy rangi bilan uyg‘anlashtirishga harakat qilish kerak.

Sgraffito usuli maxsus devorlarni suvoq qilish yo‘li bilan bajariladi. Buning uchun xam bir rangli kompozitsion unsur o‘sha rangli aralashma bilan suvaladi. Ortiqcha suvoq olib tashlanadi. Kerakli joylarining suvoqlari qoldiriladi. Natijada rangli o‘yiq va bo‘rtma kompozitsiya hosil bo‘ladi. Metroda shunday kompozitsiyalar mavjud.

Mozaika (fransuz. masaique – muzalarga bag‘ishlangan) bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yog‘och, marmar, metall va boshqa) bo‘laklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mahobatli (monumental) bezak san‘atining asosiy turlaridan biri. Asosan, binolar, amaliy san‘at asarlarini bezashda, dastgoh san‘ati asarlari yaratishda qo‘llaniladi. Mozaika yig‘ishning ikki xil usuli farqlanadi: mustahkamlovchi modda (ohak, sement, mum va boshqalar) surtilib, bezatilayotgan yuzaga mayda bo‘laklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri terilib, naqsh (tasvir) hosil qilinadi; teskari terishda rasmlı qog‘oz yoki matoga bo‘laklar o‘ng tomoni bilan yopishtiriladi, so‘ng teskari tomonga mustahkamlovchi modda surtilib, bezatilyotgan yuza (devor yoki shift)ga biriktiriladi. Mozaikaning alohida turi-inkrustatsiya hisoblanadi.

Mozaika har xil rangdagi tabiiy, sun‘iy tosh (malta), rangli oyna, koslin parchalaridan devorga yoki qattiq material jismlarga elim, sement kabi moddalar yordamida yopishtirilgan san‘at asari.

Mozaika me‘morchilik bezagining eng qadimiy tasviriy san‘at turlaridan biri hisoblanadi. Mozaika hozirgi vaqtda ham o‘z qimmatini yo‘qotmay, badiiy jihatdan rivojlanib, yangidan-yangi usullari paydo bo‘lmoqda.

Freska usulida ishlangan kompozitsiyalar puxta va uzoq muddat davomida saqlanadi. Freskali rangtasvirning zamonaviy imkoniyatlari mavjud. Ular O'zbekistonda ham ko'p qo'llanilgan. O'zbekiston Davlat tarixi muzeyi, Kosmonavtlar metro bekatidagi freskalarni B.Jalolov, A.Navoiy nomli opera va balet teatridagi freskalarni, Ch.Axmarov va boshqa mahobatli rangtasvirchi rassomlar bajarganlar.

Mahobatli bezak san'atining eng go'zal va chiroyli turlaridan biri vitrajdir. Vitraj me'morchilik binolarida kuchli rangli tasvir sifatida ko'zga tashlanadi. Gotika me'morchiligida ibodatxonalar qurilishida vitrajdan keng foydalanilgan. Zamonaviy binolarda ham u bezak va tasviriy san'at turi sifatida o'z qimmatini yo'qotmagan.¹²

Tabiiy ashyolar- yog'och, tosh, metall kabilardan tashqari inson tomonidan yaratilgan sun'iy oyna-shisha va oynaga rang berish hayotda keng qo'llanib kelinmoqda. Zamonaviy shisha sanoati istagan rangli oyna ishlab chiqarish imkonini beradi. Shundan kelib chiqadiki, vitraj ishlab chiqarish ham keng imkoniyatlarga ega.

Mahobatli rangtasvir san'ati bilan me'morchilik binolarini bezash turlaridan biri temperada ishlanadigan devoriy rasm-rospisdir. Bu usul bugungi kunda eng ko'p tarqalgan. Tempera bo'yoq tayyorlaydigan zavodlar tomonidan ko'p ranglarda ishlab chiqarilmoqda. Bu esa rospis ishlash uchun rassomlarga qulaylik yaratmoqda. Temperaning kozein moyli va polivinilatsetat turlari mavjuddir. Tempera bo'yog'i bilan ishlash mahobatli va dastgohli rangtasvir ishlashning qadimiy usullaridan biri. Tempera mahobatli rangtasvir ishlashda moybo'yoqqa nisbatan afzallikka ega bo'lib, bo'yoq yuzasi yaltiramaydi va chidamli, mustahkamdir. Devoriy rasmda moybo'yoq biroz qorayadi va yorilishi mumkin.¹³ Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, temperada ishlangan devoriy rasm moybo'yoqqa nisbatan chidamli ekanligi ma'lum. Masalan, ikona alif bilan

¹² Xudayberganov R. A. Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. T.: "ANARPRINT" -2007.81 b.

¹³ Формозов А.А. Памятники первобитного искусства, 101-бет.

qoplanib qorayayotgan bo'lsada, tempera bo'yoq rangi o'z kuchini saqlab qolgan. Tasviriy san'at rivojlanishi jarayonida rassom ustalar temperani tabiiy emulsiya qo'shib tayyorlaganlar. Odatda bo'yoq kukuniga elim, moy va lok qo'shib tayyorlaganlar. Tarkibida moyi bo'lgan tempera suvda yuvilib ketmaydi.

Rassom tempera bilan ishlayotganida bo'yq qurigandan keyin biroz oqarishini e'tiborga olishi kerak. Tempera bo'yog'ini bir necha bor ustma-ust surtish mumkin. Suyuq va quyuq bo'yoqlarda ham ishlash imkoniyati mavjud. Temperada ishlangan rangtasvir o'zgacha go'zallikka ega bo'lib, murakkab ranglar jilosini hosil qiladi. Chunki rangli qatlamlari bir-biri bilan qo'shilib, uchinchi rangni hosil qilishi mumkin. Moybo'yoq esa bu darajadagi imkoniyatga ega emas. Moybo'yoq qatlami biroz qalin bo'lsa, tagidagi rang qatlamini yopib qo'yadi. Rospis ko'pincha tayyor bo'yoqlar: kozeinli bo'yoq, polevinilatsitat bo'yoq, tuxumli bo'yoq, akril bo'yoq kabi rangli bo'yoqlardan qurigan sementli, ohakli- alebastr suvoqli devor, DSP plita, fanera va boshqa materiallar yuzasiga bajarilishi mumkin. Bunda devorni tayyorlash freskaga o'xshash bo'lib, suvoq yuzasi shpaklevka bilan tekislab chiqiladi va grunt suriladi. Grunt uchun sut, suyultirilgan kozein elimidan foydalanish mumkin. Gruntning vazifasi bo'yoqni suvoqda yaxshi ushlab turishi uchun zarur. Shuning uchun devorga oldindan tayyorlangan grunt suyuqligini kattaroq qilcho'p bilan ikki-uch marta tekis qilib surtiladi. Yaxshi quritilgan devorga karton-kalka orqali tasvir ko'chirib o'tkaziladi va asta-sekin idishlarda tayyorlangan rangli bo'yoqlar bilan ishlov berish boshlanadi. Devoriy rasmning mukammal va chiroyli chiqishi rassom mahoratiga bog'liqdir.

Bitiruv malakaviy ishida biz yoritmoqchi bo'lgan mavzu – "Teatr" bino devoir yuzasida mozayka uslubida aks ettirishga mo'ljallangan. Ma'lumki, binoga rangtasvir kompozitsiyasini ishlash uchun mavzu tanlashda, kompozitsiya g'oyasini ishlab chiqishga kirishishda eng avvalo mavjud binolarda o'z aksini topgan mahobatli rangtasvir kompozitsiyalari mohiyat, mazmuni bilan tanishish kerak bo'ladi. Unda ifoda etilgan g'oya, fikrlar tahlil qilinadi. Binoning shaharsozlikda tutgan o'rni, uning vazifasi bilan tanishiladi hamda unga qanday mazmundagi kompozitsiya ishlash mumkinligi haqidagi o'ylab ko'riladi. Binoga

mos ko‘rinishda, mos keladigan g‘oyaga ega kompozitsiya ishlash uchun xilma-xil eskizlar tayyorlash kerak bo‘ladi.

Kompozitsiya asarini yaratish maqsadida ishlayotgan ijodkor o‘zi ishlamoqchi bo‘lgan mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni chuqur bilishi kerak. Ayniqsa biror tarixiy mavzuga qo‘l urishdan oldin o‘sha tarixiy davr bilan, o‘sha davr tarixiy voqealari, o‘sha davrda yashagan insonlar hayoti, turmush tarzi, ularning kechinmalaridan rassom yaxshi xabardor bo‘lishi kerak. Shundagina yaratilgan kompozitsiya asari haqqoniy, ta’sirchan ko‘rinishda bo‘ladi.

Ma’lum bir binoga devoriy rangtasvir kompozitsiyasini ishlash kerak bo‘lsa eng avvalo bino mohiyati, uning asosiy vazifasi aniqlanadi. Keyin binoning hajmiy-fazoviy ko‘rinishi, planirovkasi, konstruksiyasi, qo‘llanilgan me’moriy elementlari bilan tanishib chiqiladi. Kompozitsiyaning joylashadigan o‘rni muhim ahamiyatga ega devoriy surat bino eksteridami yoki intererida ekanligi muhokama qilinadi. Har ikkala holda ham bino umumiy me’moriy ko‘rinishidagi qo‘llanilgan materiallar doimo inobatga olinadi. Yuqorida aytilganidek, devoriy surat xarakteri eng avvalo u joylashayotgan me’moriy hajm materialiga uyg‘unlikda tanlanishi juda muhim.

Rangtasvir kompozitsiyalarining mozaika, rospis, sgraffito, vitraj kabi turlarining har biri o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, ular joylashish o‘rni, material, faktura, plastik jihatdan turli ko‘rinishlarga ega. Masalan, rospis ishlash mumkin bo‘lgan joyga sgraffito yoki mozaikani ishlash har doim ham mumkin bo‘lavermaydi.

Mozaika o‘z mohiyatiga ko‘ra kichik yoki kattaroq devorlarga, bino interer va ekstereriga birday ishlanishi mumkin. Vitraj faqat deraza, eshikli joylarda ishlanadi. Lekin har qanday kompozitsiya turini ishlashda me’moriy bino hajmiy-fazoviy ko‘rinishi, konstruksiyasi, materiallari fakturasi, umumiy rangi bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilish kerak. Kompozitsiya mavzusi albatta binoning amaliy vazifasiga, shaharsozlikdagi o‘rniga, ko‘rinish nuqtalariga, vizual idrok qilinishiga bog‘liq holda tanlanishi shart.

Yaratilayotgan mahobatli rangtasvir asarlari bilan bu asarlarni namoyon qilib turuvchi me'moriy bino xususiyatlarini uyg'unlashtirish vazifasi doimo birlamchi vazifa qilib qo'yilishi kerak.

Devoriy suratlar chizishdagi tasvir miqyosi odam va xona o'lchamlarining ko'lamiga, o'zaro mutanosibligiga bog'liq bo'lgan. Kuzatish masofasining uzoq-yaqinligi, devor sathi va balandligining katta-kichikligiga qarab, odam tasvirining kattaligi yarim naturadan ikki naturagacha qabul qilingan. Devoriy suratlar past va yuqoridan lentasimon naqsh bilan chegaralangan. Bunday vosita tasviriy san'at asarining me'moriy shakl bilan bog'lanishini ta'minlagan.

Dastlabki bosqichda me'morchilikda qo'llanilgan tasviriy vositalar devoriy chizgilar bo'lgan, keyinroq g'or, chayla va dastlabki uy-joylarda eshik, uy-ro'zg'or anjomlari (o'choq, mo'ri va boshqalar), amaliy san'at namunalari kirib kelgan. Binolarning tashqi bezak alomatlari har qaysi imoratning o'ziga xosligini belgilab berishga qaratilgan.

Tabiatning badiiy ijodi cheksiz. U har qanday rassomga haqiqiy ilhom berib, palitrasini, koloritini boyitadi, rang-baranglikka chorlaydi, doimiy yangilikka boshlaydi., qalbini ruhlantiradi. San'atkor esa hayotga taqlid qilibgina qolmay, balki uni shoirona aks ettiradi, undan zavqlanadi. Buning uchun rassom oldida cheksiz izlanish, yangi uslublar topish kabi buyuk vazifalar turadi. SHuningdek, shablonlardan qochishga undaydi. Ba'zida "ranglari chiroyli" deyilganda bu so'z rassom uchun unchalik maqto'v emas. Ranglarni chiroyli qilishning o'zi kifoya emas. Bunday holatda kartinaning ma'nosi, g'oyasi e'tiborga loyiq emas, rassom o'z oldiga qo'ygan ijodiy maqsadiga erisha olmagan yoki u butunlay bo'lmagan. Yetuk rassom o'z ijodida kartina g'oyasidan mavzu, rangtasvir, chizmatasvir, nur, koloritdan shaklning plastik uyg'unligini ajratmaydi. Ana shular kompozitsiyaning yaxlitligini ta'minlaydi.

Kompozitsiya tasviriy san'atda muhim rol o'ynaydi. Nafis tasviriy san'atda kompozitsiya haqida gapiradigan bo'lsak, "kompozitsiya" so'zi lotincha bo'lib, bayon qilish, tuzish, joylashtirish demakdir.

Asar yaratishda mazmun va g'oya shaklni hosil qiladi. Ya'ni mazmun shaklni yaratadi. Shuning uchun g'oya tug'ilar ekan, uni ifodalash, shaklini, kompozitsiya

qurilmasini yaratish asar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Badiiy ijodda kompozitsiyani mukammal bilish katta ahamiyatga ega. Yaxshi chizmatasvir yoki rangtasvir ustasi bo'lish mumkin, ammo fikrni ifodalash qoidasini, qonunini bilmasa, yaratilgan asar o'z qimmatini yo'qotadi. Kompozitsiyada g'oya, shakl (qiyofa)lar uyg'unligi muhim hisoblanadi. Ijodda oldin g'oya, maqsad tug'iladi, keyin shunga mos shakl, qiyofalar tanlanib, badiiy kompozitsiya yaratilmog'i kerak. Bir mavzu uchun yaratilgan kompozitsiya boshqa mavzuga mos kelmaydi. Chunki shakl va mazmun birligi buzilib, natijaga erishib bo'lmaydi. Shuningdek, kompozitsiyada g'oya va fikrni ifodalash uchun rang koloriti ham zarur.

Kompozitsiya qurilmasi (tuzilishi)ni ishlashda o'zining talab va qoidalari mavjud. Bundan tashqari, rassomning ham dunyoqarashi, estetik didi, fuqarolik pozitsiyasi muhim rol o'ynaydi. Asarning muvaffaqiyati kompozitsiyaga ko'p jihatdan bog'liq. Mavzu, g'oya, kompozitsiya kutilmaganda biron voqea yoki shakllar uyg'unligi natijasida ham tug'ilishi mumkin. Boshqa yangi fikrga sababchi bo'lib yangicha kompozitsiya yaratilishi ham amalda uchrab turadi.

Chiziqlar, hajmlar, shakllar, tuslar, yorug'lik, rang va boshqa badiiy asar yaratish vositalarini yagona maqsadga yo'naltirish, joylashtirish kompozitsiya deb ataladi. Rassomlar o'ziga xos ijod usulini, g'oyaviy fikrini tomoshabinga jozibali, zavqli qilib etkazish uchun har xil shakllarni birlashtirib yagona, takrorlanmaydigan asar yaratishni tashkil qilishi kompozitsiyaning zimmasida. Har bir yangi haqiqiy san'at asarining g'oyaviy mazmuniga xos shakli, o'ziga xos kompozitsiya echimi bo'ladi.

Ayrim asarlarda garchi mazmun yoki holatlar o'xshamasada, g'oyasida o'xshash yoki uni eslatib yuboruvchi unsurlar bo'ladi. Har bir asarning o'ziga xos kompozitsiyasi yangi yagona echimi mavjud bo'lsa, bu chinakam san'at asaridir. Bitta mavzuga taalluqli kompozitsiya echimini, uning konstruktiv sxemasini, tuzilishini va usulini boshqa mavzu kompozitsiyasiga qo'llab bo'lmaydi. Alohida mavzuga alohida kompozitsiya yangi qurilmasi bo'lishi kerak. Tasviriy san'at asarining hamma turi va janrlarida kompozitsiya hamma qismlarining bir butun bosh tuzuvchi elementi, tashkil qiluvchi va bog'lovchisi hisoblanadi. Shuning uchun tasviriy san'atni mukammal o'rganuvchilar kompozitsiya nazariyasini, usul va qonunlarini bilishi shart.

Jamiyatda va tabiatda o‘zaro bog‘liqlik, qismlarning bir-biriga bo‘ysunishi ob‘ektiv qonuniyatdir. Ana shu qonuniyat badiiy asarga ham taalluqlidir. Kompozitsiya yaxlitligi, bo‘linmasligi ham san’at asari uchun qonundir. Badiiy asarda g‘oya va obraz birligini, umumlashtirishni va tipiklashtirishni, kompozitsiya elementlarini va qismlarini badiiy obrazining yaxlitligini bir maqsadga yo‘naltirmasdan turib, to‘laqonli badiiy asar yaratib bo‘lmaydi. Badiiy obraz ustida ishlashda kompozitsiya vositalari, mazmun va shakl hamohangligi izlanmasa, mazmunni to‘la va chuqur ifodalab bo‘lmaydi.

Rassomning badiiy g‘oyasi qanchalik buyuk bo‘lmasin, mazmun va shakl bir-birini to‘ldirmasa, xizmat qilmasa, bunday badiiy asar bo‘sh va amalga oshirilmagan hisoblanadi, u tomoshabinga etib bormaydi. Mazmun va shakl bir butunning, yaxlitlikning ikki tomonidir. Katta realistik badiiy kartinani tomoshabin birinchi qarashidayoq mazmun, syujet, qahramonlar ruhiyatiga ko‘milgan shakllarni sezmaydi, faqat biroz vaqtdan keyin shakllarning ishloviga, koloritiga va ranglar fakturasiga e‘tibor bera boshlaydi. Rassomning fikri, g‘oyasi mazmun va shakl hamohangligida to‘la aks ettirilgan bo‘lsa, kompozitsiya vositalari amalga oshirilgan hisoblanadi.

Rangtasvirda kompozitsiya- bu kartina tekisligida tasvir elementlarini joylashtirishda fikr (g‘oya)ni ravshan, aniq va to‘laqonli joylashtirish imkonini berishidir. Biror narsa haqida hikoya qilish uchun so‘z kerak. Ammo qiziqarli va muhim fikrni aytish uchun ma’noli, ifodali so‘z kerak bo‘ladi. Shuningdek, rangtasvir san’atida ham tomoshabinni to‘lqinlantiradigan va diqqat-e‘tiborini qaratish uchun rassom kuchli, ifodali tasvir vositalaridan foydalanishga harakat qiladi. Rassom har qanday kartina kompozitsiyasi tuzilishida tasvirni va shaklni ifodali ko‘rsatishga harakat qiladi. Keraksiz narsalarni olib tashlaydi, faqat keraklilari qoldirilib, ikkinchi darajalilari birinchi darajali qismlariga bo‘ysundiriladi. Kartina obrazli tuzilishida tasvirlanayotgan narsaning ichki mazmuni quvonch va hayajon uyg‘otishi kerak. SHuning uchun kompozitsiya hamma elementlari, har xil vositalari: mato hajmi, tekislik, ko‘rish nuqtasi, ufq (gorizont) balandligi, yoritilish xarakteri, kompozitsiya markazining o‘rni va boshqalardan foydalaniladi. Bular hammasi kartinaning zavqli chiqishiga ta’sir qiladi.

Tasvirning yaxlitligi bu, ko‘rishning umumiy natijasiga bo‘lib qolmasdan, balki eng muhim kompozitsiya markazini belgilay olish san’ati hamdir. Rangtasvir asarining kompozitsion butunligi bosh va ikkinchi darajali qismlarning o‘zaro aloqasiga bog‘liq. Eng muhim qism odatda asar yuzasining optik markazi yaqinida joylashadi. Uni ajratishda rassom qismlarni umumlashtiradi, naturalar kompozitsion markazidan uzoqlashyotgan tus va rang munosabatlari bo‘ysundiriladi. Bularning barchasi tomoshabin nigohini asarning kompozitsion markaziga yo‘naltirish imkonini beradi.

Ma’lumki, qaralayotgan ob’ektning nigohiy obrazi tanlash va umumlashtirish natijasida vujudga keladi. Inson bir guruh buyumga nigoh tashlaganida biror bir narsa alohida ajralib ko‘rinadi, qolgan ashyolar narsalar xira tortadi, bu nigoh markazining hosil bo‘lishidir. Nigohiy obrazning markaziy qismi eng kuchli yorug‘lik va rang kontrastiga ega. Rassom nigohiy idrokning ikkinchi darajali qismlarining ko‘rinish xususiyatini hisobga olishi zarur. Kompozitsiya yaxlitligi ko‘p holda ravshanlikka, ifodaviylikka va ikkinchi darajali detallar soniga bog‘liq. Shuning uchun detallarni asosiy g‘oyaga bo‘ysundirish yaxlitlik qonunining talabidir. Qiyofalar va detallar soni o‘zini oqlashi kerak, aks holda ko‘p qomatlilik asarning boro‘yini oshirmasligi va etarli natija bermasligi mumkin. Kam detal (qiyofa)lar bilan ko‘p ma’no berishga intilish lozim. Shuningdek, kartinada tasvirlanayotgan shakllarni tomoshabin tomonidan aniq va yengil uqib olinadigan qilib tasvirlash kerak. Agr shakllar bir-birini to‘siq qolgan holda ham uni anglab olishga imkon bo‘lishi zarur.

Asar yaratish jarayoni badiiy jarayon bo‘lib, ko‘p izlanishga, mukammal bilimga, tayyorgarlikka, ma’lum tasavvurga ega bo‘lishni taqozo etadi. Tayyorlangan chizgilar, etyudlar, yig‘ilgan ashyolar asarning birinchi belgilaridayoq to‘g‘ri kelmasligi, kamligi, badiiyligi jihatidan ham puxta topilmaganligi yaqqol bo‘lib qolishi mumkin. Kompozitsiya ishlash jarayonida tasvirlanayotgan buyum, uning shakli va rangini nur-soya, etyudlr bilan taqqoslash lozim. Zarur bo‘lganda, yangisini ishlash ham kerak bo‘lib qoladi. Bunday tekshirishlar, izlanishlar yosh rassomni ko‘p xatoliklardan xalos etadi. Real ko‘rinish (natura)dan qo‘shimcha ashyolar yig‘ish yangidan qarashga, yangicha obraz topishga, yangi tipik qiyofalar kashf etishga imkon beradi.

Ijod rassom uchun ham, boshqa san'atchilar uchun ham katta ahamiyatga ega. Har kimni ham yaxshi chizmatasvirga, rangtasvirga, kompozitsiya tuzish qoidalariga o'rgatish mumkin. Ammo qalbni, yurakni, ruhiyatni ijodga o'rgatib bo'lmasa kerak. Ijod qilish hammaga ham nasib qilavermasligi mumkin. Ijodkorda g'oya, fikr, dard bo'lishi eng muhim bo'lsa kerak. Chunki boshqalarga fikrini aytish uchun qalbining drdi, o'z qarashi, intilishi bo'lsa, yurakdan yaratilgan ijodiy asari ham boshqalar qalbiga yo'l topishi mumkin. Ana shunda tomoshabin asarni tushunadi, hsi qiladi, hamdard bo'ladi. Rassom qalbdan yonib, ta'sirlanib, o'z drdini tasvirlay olsa, boshqalar ham bundy asarni umrbod esdan chiqarmasligi mumkin.

Bir mazmunning o'zi turli shakllarda ifodalanishi mumkin. Mavzuni ifodalaydigan asosiy voqea-syujet ham badiiy shakl elementlaridan biri hisoblanadi. Tasvir koloriti, uning keng jihatdan hl qilinishi asar mag'zini tashkil etuvchi rasmlarning aniq ishlanishi kabilan shaklg, rassomning o'ziga xos uslubiga aloqadordir. Shakl ham, g'oya ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ular har doim o'zaro bir-biri bilan bog'liq.

Asarda hamma narsa asosiy fikrga va g'oyaga qaratilishi kerak. Kompozitsiya yaxlitligida ikkinchi darajali narsalar birinchi darajali narsalarga bog'liq bo'lib, butun tasvirni yagona maqsadga birlashtiradi. Ikkinchi darajali narsalar ortiqcha diqqatni tortib, ko'zga tashlanmasligi lozim. Asosiy qism ajratilib tasvirlanadi. Agar kartinada shakllar bir xil ahamiyatli bo'lib, pala-partish tartibda joylashtirishsa, kompozitsiya o'z ifodaliligini, ahamiyatini yo'qotadi. Bu esa mazmunning barbod bo'lishiga olib keladi. Mazmun ijrosi-bu, mtodagi tasvir (kartina), haqiqiy tekislik va u ham boshqa haqiqatning obrazini yartaishdir. Kartina tekisligidagi haqiqat tasviri rassom tomonidan amalga oshirilgan obraz hisoblanadi. Kartina kompozitsiyasi- bu tekislik yuzasidagi rmg dog'lari va chiziqlar yordamidagi shakllar guruhi, harakat va syujet tasvir qurilmasidir.

Bir figurali syujetli kompozitsiya tuzilishi portret kompozitsiyaidan farqi shundaki, unda qomatning voqea bilan harakat muhiti shakllar, harakat bilan aniqlanadi. Bir figurali kompozitsiya ichki harakatini saqlaydi. Bu kompozitsiya shaxsning monologidir.

Ko‘p figurali kompozitsiyada ham voqelikni tasvirlash, muhit hosil qilish bir qomatli kompozitsiya kabi rassom oldiga qo‘yiladigan vazifalardir.

Rassom bu ijodga berilgan inson. Kartina rangtasvirchining ko‘z oldida tugallangan mehnat natijasi yakunidir. Unda fikr, g‘oyasini izhor qiladi, his sezgisini keng yoritadi, o‘z muhabbatini izhor qiladi. Kartina rassomning ijodiy hayoli asosida yaratiladi, ko‘rsatiladi, uning kuchi va muhim tomoni ham ana shundadir. Kartina fotosurat kabi hujjat emas. U shu zamon kishilarining tuyg‘usini va fikrini aks ettiradi.

2.2. Asarning yaratilish tarixi va texnologiyasi

Mahobatli rangtasvir tasviriy san'atning eng qadimiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Dastlab insoniyatning ilk ajdodlari tomonidan qadimiy qoyatosh suratlari, g'or va ungurlarga aks etgan devoriy suratlar va petrogliflar shaklidagi ushbu san'at turi bugungi kunga kelib, mahobatli me'morchilik san'atining ajralmas qismiga ham aylanib ulgurdi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi etib olingan "Teatr" nomli ish ham mahobatli me'moriy obida – teatr binosi interyeida mozaika uslubida tasvirlash uchun eskiz sifatida olindi.

Monumental rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasviriga, mayda detallardan iloji boricha kamroq foydalanishga-harakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to'g'risida real tasavvur berishi kerak. Monumental rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o'taydi. Shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi. Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuliga qarab o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. Freska odatda devorga to'g'ridan to'g'ri suvoq ustiga ishlanadi. Bolonka rangli tosh, shisha, bo'yalgan oyna, sirli sopol parchalaridan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o'yma naqshlar ba'zan har xil shakldagi ramkalar (to'rtburchak, kvadrat, beshburchak va hokazolar) bilan chegaralangan bo'ladi - bu pannodir. Panno dastlab alohida yuzada (xolstda, ganchda, yog'ochda) ishlanib olinib bitgandan so'ng devorlarda qoldirilgan maxsus o'rinlarga o'rnatiladi. Lekin mazmun jihatdan mustaqil xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda panno dastlab xolstga moy bo'yoq bilan ishlanib, keyin kerak bo'lgan o'ringa yopishtiriladi.

Eng qadimgi mahobatli san'at turlaridan biri mozaika hisoblanadi. Mozaika me'morchilik bezagining eng qadimiy bo'lagidir. Mozaika hozirgi vaqtda ham o'z qimmatini yo'qotmay, badiiy jihatdan rivojlanib, yangidan-yangi usullari paydo bo'lmoqda.

Eramizdan avvalgi V asrda qadimgi yunonlar hovlilariga dengiz toshlaridan mozaika ishlaganlar. Ellinizm davri ustalari va qadimgi rimliklar tabiiy rangli toshlardan terib naqshli bezak – mozaika qilishgan. Syujetli kompozitsiyani devorga va polda ishlashgan. O'sha davrlarda keng tarqalgan smalta toshlaridan terilgan mozaika shu kungacha ishlatilmoqda. Smalta – bu sun'iy rangli toshlardir. Qadimgi misrliklar smalta toshiga metal oksidlaridan foydalanib rang berishgan va ko'p yillar davomida mebel va uy anjomlarida bezak tosh vazifasida ishlatishgan.

IV-XVI asrlarda Vizantiyada mozaika yanada rivojlangan, katta maydonlar, ibodatxonalar interyeri naqsh, murakkab ko'p figurali kompozitsiyalar bilan bezatilgan. Masalan, smalta toshlaridan ishlangan Revennadagi San-Vitalle cherkovida (547 yil), Konstantinopol shahridagi Qahriya Jom'e masjidi (1316-1321 yillar) va boshqalar.

Mozaika Qadimgi rus davlatiga X asrda kirib kelgan va ikki yuz yil davomida cherkov binolarini bezagan. Sofiya cherkovi (1046-1049 yillar) va Kiyevdagi Arxangel Mixail (1108-1113 yillar) cherkovi bunga misol bo'la oladi.

XVIII asrda Rossiyada M.V. Iomonosov smalta tayyorlash usulini ishlab chiqdi va "Poltava jangi" kartinasini mozaikada bajardi. Keyinchalik monumentalist rassomlar P. D. Korin, A. A. Deyneka Moskva shahridagi metro stansiyalarini mozaika bilan bezashdi.

Mozaika ishlash uslubi qiyinroq bo'lsada, mozaika toshlarining rangi yorqinligi, rang o'zgarmasligi, uzoq muddatga chidamliligi, rassomlarda katta qiziqish hosil qildi. Mozaikada ishlangan asarlar yuz yillab saqlanishi mumkin.

Mozaika toshlari qadimda tuproq suvog'iga terilgan bo'lsa, sement ixtiro qilingandan keyin sementli qumsu voqdan foydalanib bajarila boshlandi va bu mozaika kompozitsiyasini uzoq yillar saqlanishini ta'minladi.

Mozaikaning ko'p ishlatiladigan ikki turi mavjud bo'lib, Rim mozaikasi va Florensiya mozaikasi mavjud. Rim mozaikasi rangli smalta toshlarni maydalab teriladi, Florensiya mozaikasi esa yirik har xil rangli va tabiiy tusli tabiiy marmar toshlardan terilgan kompozitsiya hisoblanadi. Bu ikki turning bajarilish usuli bir-biridan ancha farq qiladi.

Mozaika ishlash jarayoni bir necha; bo'lajak devoriy asarning eskizi (maket, perpektiva bilan), rangli karton, karton kalka nusxasi, guruntga ko'chirish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

“Teatr”nomli bitiruv malakaviy ishi mavzusi ham mozaika uslubida ishlash uchun tanlandi. Sababi, mozaikada ishlangan suratlar har qanday namlik va haroratga dosh beradi, yorug'lik tushishiga qarab rangi tuslanadi hamda uzoq yillar saqlanadi.

Teatr mavzusining bitiruv malakaviy ish sifatida tanlanishining asosiy sababi, ushbu san'at turi ham o'zining jozibasi, xalqonaligi, insonlar kechmishi, his-tuyg'ulari, orzu-o'ylarini jonli vositalarda aks ettirishi, kuchli psixologik xarakteri bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turishidir.

Teatr san'ati fazo va vaqt belgilariga ega. Spektaklda juda ko'p fazoli tomonlar mavjud. Undagi buyum - jihozlar muhiti, sahna bezaklari, kiyim - kechak va nihoyat, aktyorning o'zi muayyan fazoli xususiyatga ega. Spektaklda vaqt mezonni ham muhim o'rin tutadi. Sahna asari doimo biror vaqt oralig'ida sodir bo'ladigan alohida harakatni namoyish etadi. O'zida fazoli va vaqt mezonlarini mujassamlashtirilgan teatr fazo va vaqt uzviy birligi amal qiladigan san'at ko'rinishidir. Teatrning fazo va vaqt tomonlarini aktyor birlashtirib turadi. aktyordan alohida iste'dod, xotira, ehtiros, ma'noli tasavvur xayoli, ifoda kuchi talabi kabi mahorat talab etiladi. Aktyor mahorati teatr san'atining barcha shakllari uchun muhim xususiyatdir. Aktyor mahorati teatr san'atining tub va nodir xususiyatidir. Teatr san'atining boshqa qismlari aktyor ijodiga xizmat qiladi. Aktyor sahnada bir vaqtning o'zida ham ijodkor, ham qiyofa (obraz) yaratuvchi, ham ijrochi bo'la oladi.

Aktyor sahna qiyofasini yaratayotganida dramatik syujetga asoslanadi. Bu o'rinda aktyor san'ati dramaturg yaratgan rolni ijodiy talqin qilish san'atiga aylanadi. Ammo, asl san'atkor aktyor uchun dramatik qiyofa yangi sahna qiyofasini yaratish uchun asos bo'la oladi, holos. Aktyor mazkur rolni har safar ijro etganida, uni yangi hayotiy kuzatishlar, o'y - xayollar, ifoda vositalari bilan to'ldirib, sayqal berib, boyitib boradi.

Aktyor ijodining mohiyati muallif badiiy rejasiga bo'lgan e'tiqodi, u bilan qoshilib - qorishib ketishi, dramaturg taklif qilgan fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar og'ushiga g'arq bo'lib, ularni sahna vositalari orqali namoyon qilishi bilan izohlanadi. Aktyor dramaturg asarini o'zicha «qayta yaratadi», muallifga «sherik» darajasiga ko'tarilishi mumkin. Aktyor so'zlar zamiriga yashiringan mazmunni ochib beradi, matnga o'z talqini bilan aralashadi, odamlar va ular hayot tarziga o'z munosabatini bildiradi, ularning barchasini o'zining ijodiy tasavvurlari bilan boyitadi.

Aktyor haqiqiy badiiy qiyofaga aylanib ketishga, uning mag'ziga kirib ketishga intiladi. Matnni to'la egallab olish, qiyofa mag'ziga etib borish boshqa san'at turlari va ko'rinishlarida ham sodir bo'ladi. Ammo, teatrdan yorqin, betakror qiyofa (obraz) lar yaratish aktyor mahoratining asl maqsadi va oliy cho'qqisi hisoblanadi. Teatr aktyori ichki va tashqi jihatdan sayqal topgan mahorat, yuksak ovoz - nutq ohangi va mayin - egiluvchan madaniyat sohibi bo'lishi kerak.

Teatr spektakli ijodiy qayta qayta ishlab chiqilgan san'at asaridir. Aktyor yaratayotgan qiyofalar tufayli har bir spektakl sahnaga necha marta takror qo'yilishidanat'iy nazar, har safar yangi ijod mahsuli kabi namoyon bo'ladi. Tomoshabin teatrdan tayyor san'at asarini idrok etibgina qolmay, balki hozir shu yerda, bugun sodir bo'layotgan badiiy ijod jarayoni «ichida» ishtirok etadi.

Sahna san'ati o'zining butun tarixi davomida adabiyot, musiqa, tasviriy san'at bilan aloqadorlikda rivojlandi, shu tarixi davomida sahna qorishmasining ayrimlari ko'proq yoki kamroq qatnashgan, ammo qorishmaning o'zi o'zgarmas bo'lib qolavergan. Aktyor sahna qorishmasining asosi bo'lib kelgan, hozir ham shunday.

Sahna qorishmasida dramatik adabiyot (pesa) alohida o'rin tutadi. Teatr san'ati dramatik adabiyotning talqinchisi tarzida namoyon bo'ladi. Teatr va dramaturgiya o'zaro munosabatlari masalasi sahna san'atining voqelik bilan aloqadorligi masalasining tarkibiy qismidir. Yozuvchi, musavvir, me'mor, haykaltarosh voqelikka to'g'ridan - to'g'ri murojaat qilsalar, rejissyor, aktyor, balet ustasi dramaturg, bastakor tomonidan yaratilgan «estetik voqelik»ka murojaat etadi. Teatr dramaturgiyasi sahna vositalari orqali vujudga kelgan sahna qiyofalari tizimini anglatadi.

Dramaturgiya hamisha teatrni «etaklab» yuradi. Aktyor va rejissyor mahorati, hatto sahna texnikasining takomillashib borishi dramatik adabiyot taraqqiyotiga bog'liq. Teatr san'ati dramatik asarni mustaqil talqin qiladi, sahna vositalari orqali o'ziga xos teranlikda ochib beradi, spektakl uslubi va ko'rinishi echimida teatr asari mustaqilligini namoyon qiladi. Shu tarzda rejissyor, aktyor, rassom hamkorligida yagona echim xosil bo'ladi.

Teatrning o'ziga xos «tili» - harakatdir. Teatr san'ati eng avvalo sahna harakati san'atidir. Shu bois spektakl ijrochilarini «harakatdagi shaxslar» deb ataydilar. Sahna harakati asosini dramatik harakat tashkil etadi. Dramatik harakat «ichki harakat»dan tashkil topadi. «ichki» harakat inson ruhiy jarayonlarini qamrab oladi va uning voqelik bilan hilma - hil munosabatlari tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Teatr dramatik harakatni sahna harakatiga aylantiradi. hozirgi davr teatr san'ati adabiyot bilan ko'proq aloqaga kirishmoqda. Sahnaga nasriy asarlar, jumladan, roman ko'proq kirib borayotir. Teatr jamoalari nasriy asarlarni sahnalashtirishda ham muvaffaqiyatlar qozonmoqdalar. Nasriy asarlarni sahnalashtirish badiiy madaniyatning hali o'zlashtirilmagan qatlamlarini kashf etish, rejissyor izlanishlarini yanada faollashtirish, aktyor mahoratini yangi sifat darajasiga ko'tarishga yo'l ochmoqda.

Sahna qorishmasida musiqa muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqali drama teatrida musiqa voqea - harakat rivojini ifodalaydi, asar mazmunini tomoshabinga etkazishga xizmat qiladi. Drama teatrida ham musiqa ahamiyati beqiyosdir. Zero

aktyor nutqi, uning sahnadagi hatti - harakatlari musiqa ohanglari va vazni qonunlariga muvofiq tarzda ifodalanadi.

Spektaklning mayyan fazoli echimlarida me'morchilik va musavvirlik namoyon bo'ladi. Hozirgi teatrda sahna rassomi ishtiroki sahnani jihozlash, yoki aktyor o'yinini sodir bo'ladigan qulay maydonchani yaratish, spektakl g'oyasini mumkin qadar mayin - jozibali etkazish va boshqa mezonlar bilan belgilanadi. Bordiyu, spektaklda musiqaviy, mayin - ifodali, tasviriy narsalar mustaqil yoki ustivor ahamiyat kasb etib qolsa, unda sahna harakati tizimi izdan chiqadi. va yaxlit sahna qiyofasi buziladi.

Teatr jamoaviy san'at turi bo'lib, uning yutug'i badiiy yaxlitlikka erishishda namoyon bo'ladi. Teatr asari asosida yagona badiiy reja yotgan bo'lib, u barcha ijodkorlar mehnatini birlashtiradi. hozirgi sahna rejissyori spektakl tashkilotchisi va ilhomchisi sifatida teatr qorishmasini vujudga keltiradi, badiiy yaxlitlik xosil qiladi, qiyofalarni shakllantiradi va uning markazida aktyor ijodini qaror toptiradi. Ochiq sahna va cirk san'atiga yaqin turadi. Ochiq sahna san'atining asosiy xususiyati shuki, u tomoshabin bilan to'g'ridan - to'g'ri va bevosita, engil va samimiy muloqot sodir etiladi. Odatda, ochiq sahna tomoshalari qat'iy syujet birligiga ega bo'lmasada, u bir - birlari bilan bog'lanmagan ijro navbatlari yig'indisi emas. Ochiq sahna dasturini ichki g'oyaviy - tuyg'uli mazmuni o'yin - kulgi yoki ko'ngil ochish vazifasidan kelib chiqadi. O'zbekiston «oynai jahoni»ning va radiosining «Miniatyuralar teatri», «Tabassum», «Nashtar»dasturlari, «Yalla»dastasi ijodkorlari tayin va o'tkir, hajv va zavq - shavqli o'yin - kulgi asosidagi badiiy qorishma yaratib, odamlarga shodlik, yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi, faol ijtimoiy - tarbiyaviy vazifani ado etadi.

O'zbek teatr san'ati sohasi qadimiy va rango-rang, ayni paytda yangi zamon an'alarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Istiqlol sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayozgan an'nalarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustivorlik kasb etdi.

Shuningdek qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarni o'zaro boyitish yo'lida rivojlantirish sa'y- harakatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

“Teatr” deb nomlangan ushbu bitiruv malakaviy ishida yuqorida keltirib o'tilganidek buyuk o'tmishga ega, betakror, nafis san'at turlaridan bo'lmish o'zbek teatr san'atining go'zalligi va jozibasini aks ettirishga harakat qilindi.

Asar teatr binosining interyeriga mozayka texnikasida mayda smalta toshlari yordamida tasvirlanish uchun eskiz holatda yaratildi. Asarning balandligi 3 metr uzunligi esa 18 metrni tashkil etishi loyihalangan.

“Teatr” asarida teatr mavzusi ya'ni teatrdagi umumiy holat tasvirlanadi. Asar markazida o'zbek teatrlarining gultoji hisoblangan sharqona sevgi timsollari bo'lgan sevimli shogirdi Ali Qushchi bilan bo'lgan suhbatini sahnasi aks ettirilgan. Sharqona liboslar, ustoz-shogirdga xos tavoze, hukmdordan ko'ra ko'proq olinga xos bo'lgan harakatlari unda o'z aksini topgan.

Markazdan o'ngda atoqli davlat arbobi olim va hukmdor Mirzo Ulug'bek sevimli shogirdi Ali Qushchi bilan bo'lgan suhbatini sahnasi aks ettirilgan. Sharqona liboslar, ustoz-shogirdga xos tavoze, hukmdordan ko'ra ko'proq olinga xos bo'lgan harakatlari unda o'z aksini topgan.

Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchidan o'ngda Yevropa teatriga xos bo'lgan obrazlar “Gamlet” tragediyasidan sahna ko'rinishi tasvirlanadi. Markazda baletga xos elementlarda oyog'ini bukib, tizzalab turgan Gamlet, undan chap tomonda qizil libosda Ofeliya, markazdan o'ngda esa Goratsio obrazlari tasvirlangan.

Otabek va Kumush asari markazidan chapda stulda o'tirgan teatr rejissori o'z harakatlari bilan ularni ijroga tayyorlamoqda.

Rejissordan chapda tasvirchi figurasi bo'lib u ijod jarayonini tasvirga olmoqda. Orqa plandagi teatr atributlari – teatr pardasi, yoritgichlar, sahna bezaklari, asarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Tasvirchidan chapda yapon teatriga xos bo'lgan kabuki teatri aktyorlari tasvirlanadi. Markazda samurai obrazi tasvirlangan. U yaponcha kimonoda, qilichini qinidan sug'urmoqchi bo'lgan holatda ushlab turibdi. Uning ikki yonida

yapon aslzoda ayollari o'tirgan va tik turgan holatda tasvirlandi. "Teatr" asarining ikki yonida teatr aktyorlari harakatini anglatuvchi ikkita haykal figuralari tasvirlangan.

"Teatr" sharq va g'arb teatrlarining o'ziga xos lavhalari orqali teatr san'atining go'zalligini va ulug'vorligini aks ettirishga va tomoshabinlarga teatrning tasviriy san'atdagi talqini orqali yuqori estetik ruh bag'ishlashga harakat qilgan.

XULOSA

San'at-inson ijtimoiy hayotining ajralmas bir qismi. U ehtiyojga aylangach, jamoa, jamiyat intilishlarini ifodalaydigan, aks ettiradigan ko'zgu hisoblanadi. San'at insoniyat tarixida hayotni bilish, uni alohida vositalar yordamida aks ettirish va jamoaga muayyan ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy ong shakllaridan biriga aylandi, unga endilikda faqat borliqni o'zlashtiruvchigina emas, balki insonni yangi bilim va obrazli tasavvurlar bilan boyituvchi qudratli bir kuch deb qaralishi hech kimga sir emas. Biz suratlarni shunchaki tomosha qilgimiz kelgani uchun tomosha qilmasligimizni bilamiz. Tomoshabin biror surat yoki tasviriy san'at asarini biror yangilikni bilib olish, biror narsani o'rganish, hayotiy tajribamizni orttirish uchun tomosha qiladi. Haqiqatan ham badiiy ko'rgazmalarda ko'pdan-ko'p asarlarni tomosha qilar ekanmiz, unda rassomning uslubinigina o'rganmay, ularning rang va kompozitsion talqiniga ham e'tibor beramiz. Binobarin, bundan estetik zavq olamiz, qo'shimcha bilim, tasavvurlar hosil qilamiz.

San'at-ijtimoiy ong shakli, ob'ektiv borliqning badiiy inikosi, ya'ni atrof-muhitda kechayotgan voqea-hodisalarni turli badiiy vositalar orqali ifodalovchi ijod turidir. Ana shunday ijod namoyondalarini esa san'atkor sifatida qabul qilamiz. Bugungi san'atkorning vazifasi eng avvalo zamondoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltiradigan, ularning ichki olamini, badiiy tafakkurini boyitadigan betakror asarlar yaratishdan iborat.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan "Teatr" nomli bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundan iboratki, bu asar orqali teatr san'atining o'ziga xosligini aks ettirish, undagi ijodiy jarayonlarni tasvirlash va tomoshabinga bu orqali teatrning naqadar ulug'vor san'at turlaridan ekanligini namoyish qilish shuningdek, tasviriy san'atning mahobatli rangtasvir asari – mozaika yordamida aundagi aktyorlar holatlari va jarayonni tasvirlash orqali teatr va tasviriy san'atning naqadar chambarchas bog'liq ekanligini, shu bilan birga mahobatli tasviriy san'atning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatishga harakat qilindi.

GLOSSARIY

№	Ingliz	O‘zbek	rus	Ma’nosi
8	Cardboard	Karton	Karton	(fran.carton, ital.cartone, carta – qog‘oz). 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog‘oz, oddiy qog‘ozdan qalin. Qog‘ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o‘zakka tushiriladi (mato, devor, yog‘och yoki metal tekislik).
9	Paint	Bo‘yoq	kraska	rang bo‘yash vositalari tarkibining umumiy nomi, maishiy sohada foydalanishga mo‘ljallangan, predmetlarga surtilganda yoki bo‘ktirilganda u yoki bu rangni beradi. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra pigmentlar va ulardan tayyorlangan bo‘yoqlar mineral (noorganik tuzlar yoki metal oksidlari) va organik (o‘simlik va hayvonlarning birlashishi).
14	Luck	Lak	Lak	(nem.lack, fran. laquer surtish, qoplash) 1. Turli eritgichlarda suyuq yoki yarim suyuq holatgacha bo‘lgan elim eritmasi. Lakni surtish qurigan rasm yuzasiga yupqa qatlam bilan, himoya qatlamini yaratish uchun surtiladi. Quriganidan so‘ng laklar yaltiroq qattiq parda bilan qandaydir tekislikni qoplaydi, fizik kimyoviy ta’sirlarga qarshi tura oladi.
15	Glaze	Lessirovka	Lessirovka	(nem. Lasierung glazur, Lasieren bo‘yash, Lasur ko‘k tosh, fran. Glaser sirlamoq, glazur, yaltiroqlik). Rassomlik san’ati texnikasi, korpusli rassomchilik yuzasiga ingichka, yarim tiniq ranglar qatlamini surtish yo‘li bilan chuqur rang turlarini olish uchun qo‘llaniladi.
16	Line	CHiziq	liniya	(lot. Linea – zig‘ir ip). Tasviriyl san’at va rassomchilikda ifodali

				tasviriy vosita. CHiziq, grafik yoki bo‘yoq vositalari bilan tasviriy yuzaga chizish orqali yuzaga keladi. CHiziq doim qalinlik, farqlilik va uslubga ega bo‘ladi. Tasviriy san’atda chegara, biror-bir yuza va o‘rab turuvchi muhit konturi hisoblanadi.
17	Pap	Tomchi	Mazok	mo‘yqalam tortib bo‘yoq berish – asosga (mato, karton va boshqalar) tushirilgan bo‘yoqli mo‘yqalam izi. Mazok bilan ishlash texnikasi turli va u muallifning shaxsiy harakati, oldiga qo‘ygan vazifalari, u ishlayotgan material hususiyatlariga bog‘liq.
19	Palette knife	Mastixin	Mastixin	(ital .mesticino – kurakchasimon asbob) – pichoq yoki kurakcha ko‘rinishidagi po‘lat asbob. Mastixin rassomlar tomonidan palitarni tozalash yoki rasmdan qurimagan bo‘yoqni qisman o‘chirish uchun qo‘llaniladi. SHuningdek, mastixin mo‘yqalam o‘rniga bo‘yoqni tekis qatlam bilan yoki rasmga relief mazkalari bilan surtish uchun qo‘llaniladi.
20	Motive	G‘oya	Motiv	1) rassom tomonidan tasvir uchun tanlangan natura obekti, kamdan-kam manzara. Motiv – bog‘liqlik, rasm yoki etyudning tasvir yoki rang holatini aniqlaydi. 2) bezak san’atida – ko‘p marota takrorlanishi mumkin bo‘lgan ornament kompozitsiyasining asosiy elementi.
22	Sketch	Xomaki reja	zarisovka	rassom tomonidan tez bajarilgan, katta bo‘lmagan o‘lchamdagi rassomlik, grafika va haykaltaroshlik san’ati asari.
23	Nature	model	Natura	tasviriy san’atda rassom chizayotganda kuzatadigan butun borliq obektlari (predmet, odam, manzara). Naturani va uning

				ta'rifini tanlashda rassom dunyoni, o'z ijodiy vazifasini sezadi.
25	Image	Qiyofa	Образ	san'atda butun borliq hodisalarini tasvirlash shakli, butun borliqni badiiy tasvirlash shakli. Tasviri san'atda obraz fikrning aniq, yaqqol tasviri.
28	List decorative	Dekorativ bezak	Декоративны орнамент	arxitektura inshootlarida, dekorativ bezak san'atida tasviri san'at vositalari yordamida yaratiladigan ornamental va syujet kompozitsiyalari.
31	Figure	Rasm	рисунк	grafik vositalar – chiziqlar, shtrix, dog'lar yordamida qo'lda chizilgan tasvir. Ularning uyg'unligi plastik shakl, rang va nur uyg'unligini beradi. Qoidasiga ko'ra, bitta rangda yoki chegaralangan miqdordagi ranglardan foydalaniladi. Texnologiyasi: quruq va suyuq bo'yoq vositalari. Quruqlari: ko'mir, grafit qalam, sangina (qizil bo'r). Suyuqlari: tush, sepiya, siyoh. Asosi: pergament, qog'oz.
32	Reflex	Refleks	Рефлекс	grafikada kamdam-kam, tasviri san'atda: o'rab turgan obektlardan biror-bir predmetga rang va nurning tushgan aksi. Birbutun qismlarining qiyin o'zaro aloqasi
33	Restoration	Tiklash	востановит	haykaltaroshlik, tasviri san'atvabo shqa Mlar). Maxsus usullar u yordamida, ilmiy s tadqiqotlar asosida amalga oshirilad tahkamlashning barcha turlari va usullari, shikastlangan, buzilgan madaniyat yodgorliklarining tiklanishi (arxitektura,
36	Rhythm	Ritm	Ритм	tasvirdagi kompozitsion qurilish, o'z navbatid aketma ketlik yoki qaytarilish qismlarini anglatadi. Ritm rassomlik obrazining

				ifodaviyligini oshiradi, kuchaytiradi.
37	Sanguine	Sangina	Sangina	(frans. Sanguine, lot. Sanguinelis to‘q (qonli) qizil) – qizil va jigar rangli qalamlarning turli xil tonalari.
38	Light	Yorug‘lik	svet	tasviriy san‘atda soya yorug‘ elementi. Naturada bo‘lgani kabi, tasvirda ham bu atama eng yorug‘ qismlarini ko‘rsatib berishda qo‘llaniladi.
39	Chiaroscuro	Soya yorug‘	politen	narsalarning shaklini va hajmini to‘g‘ri bajarishda yorug‘ va soya qonunlari muhim ahamiyatga ega.
41	Symmetry	Simmetriya	Simmetriya	predmet yoki kompozitsiya asarining shunday qurilishiki, bir xil turdagi qismlarning bir-biriga nisbatan parallel joylashishi, unda ixtiyoriy obektning markaziy o‘qidan bir xil uzoqlikdagi masofada joylashgan holati.
44	Style	Uslub		muallifning ijod maktabida rassomlikning aniq bir yonalishiga xarakterli obrazli tizimi qat‘iy birligi va tasvirlash usuli. Atama turli ma‘nolarda qo‘llaniladi, ko‘pinch keng ma‘noda qo‘llaniladi.
45	Background	Fon	Fon	(frans. – chuqurlik, tub) tasviriy san‘atda natura, manzara, obektning orqadagi ko‘rinishi, orqa plani tushuniladi. Bunda fon odatda neytral holda, yoki ba‘zi bir hollarda oddiy tasvirga ega bo‘lgan holda joylashadi
46	Form	SHakl	Forma	tashqi ko‘rinish. Tasviriy san‘atda forma hajmni, konstruksiyani hamda mutanosiblikni anglatadi
47	Chromatic colors	Xromatik ranglar	Xramatichiski y svet	bir-biridan asosiy sifati, va ko‘rinishi bilan ajralib turadigan ranglar. Xromatik ranglarga – quyosh nurlari tushganda hosil bo‘ladigan, quyosh nurlari spektoridagi ranglar. Ranglar

				spektori shartli ravishda “ranglar doirasi” da joylashadi. Bu doirada ranglar sovuqda issiqqa qarab ketma - ketlikda joylashadi.
48	Pencil	Qalam	karandash	CHizmatasvir ishlash uchun ishlatiladi
49	Lasting	O‘chirg‘ich	Rezinka	CHizmatasvirda o‘chirish uchun ishlatiladi.
50	arrangement	Komponovka	Komponovka	Matoda tekislikligida kompazitsion joylashtirish va qurish
51	cool color	sovuq rang	Холодный свет	muzni, qorni, suvni eslatuvchi zangori, ko‘kish, yashil, to‘q binafsha va havo ranglardir.
52	warm color	issiq rang	Теплый свет	Kunni, quyoshni, baxorni va gullarni esltuvchi sariq, qizil, pushti ranglar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T. "O'zbekiston", 2017
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston", 2017.
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 y.
5. Xudayberganov R. A. Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi. T.: "ANARPRINT"-2007.190b.
6. Xudayberganov R. A Kompozitsiya (Mahobatli rangtasvir) T.: "Fan va texnologiyalar "-2015. 127 b.
7. Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. T.: 2005 y. 196 b.
8. Tursunboyev S. Teatr tarixi. O'quv qo'llanma. T.: O'MHKTM, "Bilim" -2005. 288 b.
9. Tursunboyev S. XX asr o'zbek teatri. O'quv qo'llanma. T.: -2007. 269
10. Abdullaev N.U. "Peyzajnaya jivopis Uzbekistana" T.: 1975
11. Abdullaev N.U. "O'zbekiston san'ati tarixi" O'z.f.m.j. T.: 2007 y.
12. Avtorskaya kollegiya. "Iskusstvo Sovetskogo Uzbekistana 1917 – 1972 gg." Sov. Xud. M.: 1976.
13. L.Jadova "Sovremennaya jivopis Uzbekistana" Goslitizdat - T.: 1962.
14. Mahmudov T. Olimov Y. "O'zbekiston san'atida inson omili" T.: 1988 y.
15. Formozov A.A. Pamyatniki pervobitnogo iskusstva, 101-bet.
16. A.Hakimov. O'zbekiston san'ati. Sharq, T- 2001. – 240 b.
17. Sultonova D.N. O'zbekiston me'morchiligida tasviriy va badiiy vositalarni uyg'unlashtirish. "San'at" nashriyoti, Toshkent-2010

Illyustratsiyalar



Ish jarayoni



Asar fragmenti



Asar fragmenti



Asar fragmenti



Teatr binosi interyeri maketi



Asrning asoiy ko'rinishi